



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING**  
**BUYRUG‘I**

**Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o‘rgatish amaliyotini bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 – yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e‘tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son Farmonining 8-bandi ijrosini ta‘minlash maqsadida **buyuraman**:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son Farmoniga muvofiq 2023-2024-o‘quv yilidan boshlab har bir tuman (shahar)ning bittadan umumiy o‘rta ta’lim muassasasida o‘quvchilarni ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o‘rgatish amaliyoti bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yilishi inobatga olinsin.

2. Belgilansinki:

2023-2024-o‘quv yilidan boshlab har bir tuman (shahar)ning bittadan umumiy o‘rta ta’lim muassasasida o‘quvchilarga ikkinchi xorijiy til 7-sinfdan, bitta kasb-hunarga o‘rgatish ishlari 10-sinfdan boshlab amalga oshiriladi;

o‘quvchilarning dars jadvalida belgilangan vaqtda ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o‘rgatish mashg‘ulotlarida ishtirok etishi umumiy o‘rta ta’lim muassasasi tomonidan nazoratga olinadi;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Kasbiy ta’lim” fani uchun ajratilgan o‘quv soatlari o‘quvchilarga o‘rgatiladigan kasb-hunar turidan kelib chiqqan holda taqsimlanadi;

bunda, 10-sinfda o‘rgatiladigan kasb-hunar turi qizlar va o‘g‘il bolalar uchun alohida tanlangan bo‘lsa, bunda sinfdagi o‘quvchilar soni ikki guruh (qizlar va o‘g‘il bolalar guruhi)ga bo‘lingan holda haftasiga 1 soatdan o‘qitiladi;

10-sinfda qizlar va o‘g‘il bolalar uchun umumiy bitta kasb-hunar tanlangan bo‘lsa, bunda sinfdagi o‘quvchilar soni ikki guruhga bo‘linmagan holda haftasiga 2 soatdan o‘qitiladi.

Profilli mehnat ta’limiga ixtisoslashgan davlat umumta’lim maktabi o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish va kasbga o‘qitishni ilg‘or metodlarini joriy etish bo‘yicha respublika tayanch maktabi sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Toshkent shahar va viloyatlar hokimliklarining 2023-2024-o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarga o‘rgatiladigan ikkita xorijiy til, kasb-hunar turi va ularni o‘rgatish amaliyoti yo‘lga qo‘yiladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari to‘g‘risidagi takliflari inobatga olinsin.

4. 2023-2024-o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarga o'rgatiladigan kasb-hunarlarining o'quv dasturlari Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi "Barkamol avlod" Respublika bolalar maktabi Ilmiy-metodik kengashining 2023-yil 3-iyuldagi 8-son qarori bilan ma'qullanganligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan kelishilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

5. Quyidagilar:

o'quvchilarga o'rgatiladigan ikkita xorijiy til, bitta kasb-hunar turi va ular amaliyoti yo'lga qo'yiladigan umumiy o'rta ta'lim muassasalari ro'yxati (keyingi o'rinlarda – tanlab olingan maktablar) 1-ilovaga muvofiq;

o'quvchilarga o'rgatiladigan ikkita xorijiy til, bitta kasb-hunar turi va ular amaliyoti yo'lga qo'yiladigan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarga o'rgatiladigan kasb-hunarlar o'quv dasturlari (keyingi o'rinlarda – o'quv dasturlar) 2-ilovaga muvofiq;

o'quvchilarni ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o'rgatishni tashkil etishni muvofiqlashtiruvchi ishchi guruhi tarkibi (keyingi o'rinlarda – ishchi guruh) 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Ishchi guruhga:

2023-2024-o'quv yilidan boshlab o'quvchilarga o'rgatiladigan ikkita xorijiy til, bitta kasb-hunar turi va tanlab olingan maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish;

tanlab olingan maktablarda kasb-hunar o'rganish uchun yaratilgan sharoitlarni hamda o'quvchilarga kasb-hunar o'rgatish jarayonini doimiy nazorat qilish;

tadbirkorlik va ishlab chiqarish subyektlarida o'quvchilarning amaliyot mashg'ulotlari olib borilishini nazorat qilish;

zamonaviy kompyuter sinflari bilan ta'minlangan maktablarda informatika fani o'qituvchilari tomonidan kasbga o'rgatish mashg'ulotlarini olib borilishini nazorat qilish;

ommaviy axborot vositalarida o'quvchilarni ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunar o'rgatishining mazmun-mohiyatini yoritib borish vazifalari yuklatilsin.

7. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish boshqarmasi (D.Ermatov), Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish boshqarmasi (Sh.Temirova)ga:

joriy yilning 25-avgustiga qadar tanlab olingan maktablarda o'quvchilarni ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o'rgatish ishlarini olib boradigan pedagoglar uchun manzilli o'quvlar tashkil etish;

2023-2024-o'quv yilining har choragida tanlab olingan maktablarda ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o'rgatish borasidagi ishlarni manzilli o'rganib, tegishli uslubiy yordamlar berib borilishini ta'minlash vazifalari topshirilsin.

8. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlari o'z hududida mazkur buyruqning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib belgilansin.

9. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlariga:

2023-2024-o‘quv yilidan boshlab tanlab olingan maktablarda ushbu buyruq bilan tasdiqlangan o‘quv dasturlar hamda taqvim-mavzu rejalar asosida o‘quvchilarga ikkinchi xorijiy tilni 7-sinfdan, bitta kasb-hunarni 10-sinfdan boshlab o‘rgatish ishlarini tashkil etish;

zaruratga ko‘ra tanlab olingan maktablarda ushbu buyruqning 1-ilovasida belgilangan ikkinchi xorijiy til va kasb-hunarlar bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil etish uchun tegishli fan o‘qituvchilari va mutaxassislarni jalb qilish;

o‘quv yili davomida hokimliklar bilan birgalikda tanlab olingan maktablarni kasbiy ta’lim mashg‘ulotlari uchun zarur bo‘lgan jihozlar va xomashyolar bilan ta’minlash choralarini ko‘rish;

joriy yilning 30-avgustiga qadar umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining pedagog jamoalari, o‘quvchilar va ota-onalar o‘rtasida o‘quvchilarni ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunar o‘rgatilishining mazmun-mohiyatini tushuntirish ishlarini tashkil etish;

2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan avgust kengashlari o‘quv-seminar dasturiga “O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishning tashkiliy masalalari” mavzusini kiritish;

o‘quv yili davomida tanlab olingan maktablar tomonidan o‘quvchilarga o‘rgatiladigan ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunar bo‘yicha tegishli qaydlarni elektron jurnallarga o‘z vaqtida kiritib borilishini nazorat qilish;

o‘quv yili davomida o‘quvchilarni ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o‘rgatish borasida tanlab olingan maktablarga amaliy-uslubiy yordamlar berib borish;

har chorak yakuni bo‘yicha tanlab olingan maktablarda o‘quvchilarni ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o‘rgatish ishlarining holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni vazirlikning O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish boshqarmasiga taqdim etib borish vazifalari topshirilsin.

10. Devonxona (D.Isxakova) ushbu buyruqni bir kunlik muddatda vazirlikning tarkibiy bo‘linmalari, hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari hamda vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalarga yetkazilishini ta’minlasin.

11. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari U.Begimkulov zimmasiga yuklatilsin.

**Vazir**



**X.Umarova**

Toshkent sh.,  
2023-yil “14”-avgust,  
239 - son

**O'quvchilarga o'rgatiladigan ikkita xorijiy til, bitta kasb-hunar turi va ular  
amaliyoti yo'lga qo'yiladigan umumiy o'rta ta'lim muassasalari  
RO'YXATI**

T/r	Tuman (shahar) nomi	Maktab raqami	O'rgatiladigan		O'rgatiladigan kasb-hunar nomi*
			birinchi xorijiy til	ikkinchi xorijiy til	
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>					
1.	Nukus shahar	2	Ingliz tili	Nemis tili	Tikuvchi, duradgor
2.	Amudaryo tumani	76	Ingliz tili	Nemis tili	Tikuvchi, duradgor
3.	Bo'zatov tumani	4	Ingliz tili	Nemis tili	Tikuvchi, duradgor
4.	Beruniy tumani	69	Ingliz tili	Fransuz tili	Dasturchi, tikuvchi
5.	Qorao'zak tumani	33	Ingliz tili	Nemis tili	Dasturchi, tikuvchi
6.	Qonliko'l tumani	4	Ingliz tili	Nemis tili	Tikuvchi, duradgor
7.	Kegayli tumani	14	Ingliz tili	Nemis tili	Dasturchi, tikuvchi
8.	Qo'ng'iro't tumani	31	Ingliz tili	Nemis tili	Dasturchi, tikuvchi
9.	Mo'ynoq tumani	2	Ingliz tili	yapon tili	Tikuvchi, duradgor
10.	Nukus tumani	1	Ingliz tili	Nemis tili	Tikuvchi, duradgor
11.	Taxiatosh tumani	1	Ingliz tili	Nemis tili	Tikuvchi, duradgor
12.	Taxtak'o'pir tumani	1	Ingliz tili	Nemis tili	Dasturchi, tikuvchi
13.	To'rtko'l tumani	44	Ingliz tili	Fransuz tili	Tikuvchi, duradgor
14.	Xo'jayli tumani	14	Ingliz tili	Nemis tili	Tikuvchi, duradgor
15.	Chimboy tumani	38	Ingliz tili	Nemis tili	Tikuvchi, duradgor
16.	Sho'manoy tumani	32	Ingliz tili	Nemis tili	Tikuvchi, duradgor
17.	Ellikqal'a tumani	6	Ingliz tili	Nemis tili	Tikuvchi, duradgor
<b>Andijon viloyati</b>					
1.	Andijon shahar	55	Ingliz tili	Nemis tili	Kompyuterlarga texnik xizmat ko'rsatuvchi, tikuvchi
2.	Xonobod shahar	4	Ingliz tili	Nemis tili	Dasturchi, issiqxona ishchisi
3.	Andijon tumani	55	Ingliz tili	Fransuz tili	Dasturchi, qandolatchi
4.	Asaka tumani	1	Ingliz tili	Fransuz tili	Duradgor, tikuvchi
5.	Baliqchi tumani	54	Ingliz tili	Nemis tili	Dasturchi
6.	Buloqboshi tumani	18	Nemis tili	Ingliz tili	Kompyuterlarga texnik xizmat ko'rsatuvchi, tikuvchi

7.	Bo'ston tumani	24	Ingliz tili	Nemis tili	Kompyuterlarga texnik xizmat ko'rsatuvchi
8.	Jalaquduq tumani	8	Ingliz tili	Nemis tili	Kompyuterlarga texnik xizmat ko'rsatuvchi, duradgor
9.	Izboskan tumani	37	Ingliz tili	Koreys tili	Dasturchi
10.	Marhamat tumani	14	Ingliz tili	Fransuz tili	Dasturchi, tikuvchi
11.	Oltinko'l tumani	6	Ingliz tili	Fransuz tili	Kompyuterlarga texnik xizmat ko'rsatuvchi, tikuvchi
12.	Paxtaobod tumani	69-IDUM	Ingliz tili	Nemis tili	Dasturchi, tikuvchi
13.	Ulug'nor tumani	18	Fransuz tili	Ingliz tili	Tikuvchi, eshik va deraza tayyorlash
14.	Shahrixon tumani	3	Ingliz tili	Nemis tili	Kompyuterlarga texnik xizmat ko'rsatuvchi, mebel yig'uvchi va ta'mirlovchi
15.	Qo'rg'ontepa tumani	3	Ingliz tili	Nemis tili	Dasturchi, tikuvchi
16.	Xo'jaobod tumani	14	Ingliz tili	Nemis tili	Kompyuterlarga texnik xizmat ko'rsatuvchi
<b>Buxoro viloyati</b>					
1.	Buxoro shahar	4	Nemis tili	Ingliz tili	Dasturchi, tikuvchi
2.	Kogon shahar	9	Ingliz tili	Nemis tili	Dasturchi, qandolatchi
3.	Buxoro tumani	18	Ingliz tili	Fransuz tili	Tikuvchi, mebel yig'uvchi va ta'mirlovchi
4.	Vobkent tumani	8	Ingliz tili	Nemis tili	Duradgor, tikuvchi
5.	Jondor tumani	21	Ingliz tili	Nemis tili	Kashtachi, duradgor
6.	Kogon tuman	11	Ingliz tili	Nemis tili	Kompyuterlarga texnik xizmat ko'rsatuvchi, tikuvchi
7.	Olot tuman	35	Ingliz tili	Fransuz tili	Tikuvchi, mebel yig'uvchi va ta'mirlovchi
8.	Peshku tumani	1-IDUM	Ingliz tili	Fransuz tili	Dasturchi, chilangar-tunukachi
9.	Romitan tumani	1-IDUM	Ingliz tili	Koreys tili	Qandolatchi, kompyuter operatori
10.	Shofirkon tumani	11	Ingliz tili	Nemis tili	Dasturchi, kashtachi
11.	Qorako'l tumani	53	Ingliz tili	Fransuz tili	Tikuvchi, dasturchi
12.	Qorovulbozor tumani	4	Ingliz tili	Fransuz tili	Kompyuterlarga texnik xizmat ko'rsatuvchi, tikuvchi
13.	G'ijduvon tumani	60-IDUM	Ingliz tili	Fransuz tili	Dasturchi, qandolatchi
<b>Jizzax viloyati</b>					

1.	Arnasoy tumani	8	Ingliz tili	Fransuz tili	Duradgor, tikuvchi
2.	Baxmal tumani	1	Ingliz tili	Nemis tili	Duradgor, tikuvchi
3.	G'allaorol tumani	78	Ingliz tili	Nemis tili	Dasturchi, ayollar sartaroshi
4.	Do'stlik tumani	1	Ingliz tili	Fransuz tili	Duradgor, tikuvchi
5.	Sharof Rashidov tumani	13	Ingliz tili	Nemis tili	Elektr payvandchi, milliy taomlar oshpazi
6.	Zarbdor tumani	1	Ingliz tili	Koreys tili	Duradgor, tikuvchi
7.	Zafarobod tumani	10	Ingliz tili	Fransuz tili	Dasturchi, tikuvchi
8.	Zomin tumani	50	Ingliz tili	Xitoy tili	Duradgor, tikuvchi
9.	Mirzacho'l tumani	18	Ingliz tili	Nemis tili	Duradgor, tikuvchi
10.	Paxtakor tumani	4	Ingliz tili	Nemis tili	Dasturchi, tikuvchi
11.	Forish tumani	59	Ingliz tili	Nemis tili	Dasturchi, tikuvchi
12.	Yangiobod tumani	12	Ingliz tili	Fransuz tili	Dasturchi, milliy taomlar oshpazi
13.	Jizzax shahri	22	Ingliz tili	Xitoy tili	Duradgor, tikuvchi
<b>Qashqadaryo viloyati</b>					
1.	G'uzor tumani	1- IDUM	Ingliz tili	Nemis tili	Dasturchi, tikuvchi
2.	Dehqonobod tumani	70-IDUM	Ingliz tili	Nemis tili	Dasturchi, tikuvchi
3.	Qamashi tumani	28	Ingliz tili	Nemis tili	Duradgor, tikuvchi
4.	Qarshi tumani	71	Ingliz tili	Fransuz tili	Santexnik, tikuvchi
5.	Qarshi shahar	10	Ingliz tili	Fransuz tili	Santexnik, tikuvchi
6.	Kasbi tumani	5	Ingliz tili	Fransuz tili	Santexnik, tikuvchi
7.	Kitob tumani	1-IDUMI	Ingliz tili	Nemis tili	Dasturchi, tikuvchi
8.	Koson tumani	20	Ingliz tili	Nemis tili	Duradgor, tikuvchi
9.	Ko'kdala tumani	6	Ingliz tili	Nemis tili	Dasturchi, tikuvchi
10.	Mirishkor tumani	1-IDUM	Ingliz tili	Nemis tili	Dasturchi, tikuvchi
11.	Muborak tumani	7	Ingliz tili	Nemis tili	Duradgor, tikuvchi
12.	Nishon tumani	1-IDUM	Ingliz tili	Nemis tili	Kompyuter operatori, tikuvchi
13.	Chiroqchi tumani	25	Ingliz tili	Nemis tili	Dasturchi, tikuvchi
14.	Shahrisabz tumani	13	Ingliz tili	Fransuz tili	Dasturchi, tikuvchi
15.	Shahrisabz shahar	13	Ingliz tili	Yapon tili	Duradgor, tikuvchi
16.	Yakkabog' tumani	21	Ingliz tili	Nemis tili	Dasturchi, tikuvchi
<b>Navoiy viloyati</b>					
1.	Navoiy shahar	5	Ingliz tili	Xitoy tili	Tikuvchi, dasturchi
2.	Zarafshon shahar	3	Ingliz tili	Koreys tili	Tikuvchi, mebel yig'uvchi va ta'mirlovchi
3.	G'ozg'on shahar	2	Ingliz tili	Nemis tili	Tikuvchi, kompyuter operatori
4.	Karmana tumani	5	Ingliz tili	Nemis tili	Kompyuter operatori, qandolatchi

5.	Konimex tumani	2	Ingliz tili	Koreys tili	Tikuvchi, kompyuter operatori
6.	Navbahor tumani	3	Ingliz tili	Fransuz tili	Tikuvchi, duradgor
7.	Nurota tumani	19	Ingliz tili	Koreys tili	Duradgor, kashtachi
8.	Qiziltepa tumani	26	Ingliz tili	Fransuz tili	Tikuvchi, dasturchi
9.	Xatirchi tumani	20	Ingliz tili	Koreys tili	Duradgor, tikuvchi
10.	Uchquduq tumani	10	Ingliz tili	Nemis tili	Tikuvchi, naqqosh
11.	Tomdi tumani	12	Ingliz tili	Fransuz tili	Dasturchi, dizayner
<b>Namangan viloyati</b>					
1.	Namangan shahar	88	Ingliz tili	Fransuz tili	Dasturchi, duradgor
2.	Namangan tumani	5	Ingliz tili	Fransuz tili	Duradgor, tikuvchi
3.	Kosonsoy tuman	8	Ingliz tili	Nemis tili	Kompyuterlarga texnik xizmat ko'rsatuvchi, tikuvchi
4.	Mingbuloq tumani	6	Ingliz tili	Nemis tili	Dasturchi, duradgor
5.	To'raqo'rg'on tumani	9	Ingliz tili	Nemis tili	Kompyuter operatori, tikuvchi
6.	Pop tumani	40-IDUM	Ingliz tili	Nemis tili	Tikuvchi, dasturchi
7.	Norin tuman	12	Ingliz tili	Fransuz tili	Duradgor, tikuvchi
8.	Uychi tumani	37	Ingliz tili	Nemis tili	Kompyuter operatori, milliy taomlar oshpazi
9.	Uchqo'rg'on tumani	8	Ingliz tili	Nemis tili	Duradgor, tikuvchi
10.	Chust tumani	15	Ingliz tili	Fransuz tili	Kompyuterlarga texnik xizmat ko'rsatuvchi, tikuvchi
11.	Chortoq tuman	22	Ingliz til	Nemis tili	Duradgor, tikuvchi
12.	Yangiqo'rg'on tumani	10	Ingliz tili	Nemis tili	Kompyuterlarga texnik xizmat ko'rsatuvchi, tikuvchi
13.	Davlatobod tumani	92	Ingliz tili	Nemis tili	Duradgor, tikuvchi
14.	Yangi Namangan tumani	86-DIUM	Ingliz tili	Fransuz tili	Dasturchi, duradgor
<b>Samarqand viloyati</b>					
1.	Samarqand shahar	65	Ingliz tili	Yapon tili	Qandolatchi, erkaklar sartaoshi
2.	Kattaqo'rg'on shahar	11-IDUM	Ingliz tili	Yapon tili	Erkaklar sartaoshi, tikuvchi
3.	Bulung'ur tumani	5-IDUM	Ingliz tili	Fransuz tili	Erkaklar sartaoshi, tikuvchi
4.	Jomboy tumani	40-IDUM	Ingliz tili	Koreys tili	Dasturchi, tikuvchi
5.	Ishtixon tuman	8	Ingliz tili	Fransuz tili	Issiqxona ishchisi, milliy taomlar oshpazi
6.	Kattaqo'rg'on tumani	23	Ingliz tili	Fransuz tili	Dasturchi, tikuvchi
7.	Qo'shrabot tuman	89	Ingliz tili	Fransuz tili	Qandolatchi,

					erkaklar sartaroshi
8.	Narpay tumani	56	Ingliz tili	Nemis tili	Qandolatchi, mobil telefonlarni ta'mirlovchi
9.	Nurobod tumani	61	Ingliz tili	Nemis tili	Dasturchi, tikuvchi
10.	Oqdaryo tumani	32	Ingliz tili	Fransuz tili	Tikuvchi, akfa romlarini yasovchi
11.	Pastdarg'om tumani	56-IDUM	Ingliz tili	Nemis tili	Dasturchi, tikuvchi
12.	Payariq tumani	102	Ingliz tili	Nemis tili	Tikuvchi, akfa romlarini yasovchi
13.	Paxtachi tumani	12-maktab	Ingliz tili	Nemis tili	Dasturchi, tikuvchi
14.	Samarqand tumani	33-IDUM	Ingliz tili	Yapon tili	Mebel yig'uvchi va ta'mirlovchi, tikuvchi
15.	Toyloq tumani	15-IDUM	Ingliz tili	Fransuz tili	Tikuvchi, akfa romlarini yasovchi
16.	Urgut tumani	48	Nemis tili	Fransuz tili	Dasturchi, tikuvchi
<b>Surxondaryo viloyati</b>					
1.	Termiz shahar	26	Ingliz tili	Nemis tili	Duradgor, tikuvchi
2.	Angor tumani	1	Ingliz tili	Koreys tili	Dasturchi, tikuvchi
3.	Bandixon tumani	17-IDUM	Ingliz tili	Nemis tili	Duradgor, tikuvchi
4.	Boysun tumani	39	Ingliz tili	Fransuz tili	Kompyuterga texnik xizmat ko'rsatuvchi, tikuvchi
5.	Denov tumani	82	Ingliz tili	Yapon tili	Grafika muharriri (CorelDRAW), elektrik
6.	Jarqo'rg'on tumani	36	Ingliz tili	Koreys tili	Kompyuterga texnik xizmat ko'rsatuvchi, tikuvchi
7.	Muzrabot tumani	51	Ingliz tili	Fransuz tili	Dasturchi, tikuvchi
8.	Oltinsoy tumani	65	Ingliz tili	Nemis tili	Kompyuterga texnik xizmat ko'rsatuvchi, tikuvchi
9.	Sariosiyo tumani	7	Ingliz tili	Nemis tili	Dasturchi, tikuvchi
10.	Termiz tumani	35	Ingliz tili	Nemis tili	Kompyuter operatori, duradgor
11.	Uzun tumani	1	Ingliz tili	Fransuz tili	Dasturchi, tikuvchi
12.	Sherobod tumani	5	Ingliz tili	Fransuz tili	Dasturchi, tikuvchi
13.	Sho'rchi tumani	14	Ingliz tili	Nemis tili	Grafika muharriri (CorelDRAW), elektrik
14.	Qiziriq tumani	40	Ingliz tili	Nemis tili	Kulolchilik mahsulotlari ustasi, tikuvchi
15.	Qumqo'rg'on tumani	2	Ingliz tili	Fransuz tili	Duradgor, tikuvchi
<b>Sirdaryo viloyati</b>					
1.	Boyovut tumani	22	Ingliz tili	Fransuz tili	Duradgor, tikuvchi



2.	Sirdaryo tumani	41	Ingliz tili	Nemis tili	Dasturchi, tikuvchi
3.	Guliston tumani	29	Ingliz tili	Nemis tili	Duradgor, tikuvchi
4.	Xovos tumani	30	Ingliz tili	Fransuz tili	Duradgor, tikuvchi
5.	Mirzaobod tumani	5	Ingliz tili	Fransuz tili	Duradgor, tikuvchi
6.	Oqoltin tumani	17	Ingliz tili	Fransuz tili	Kompyuterlarga texnik xizmat ko'rsatuvchi, tikuvchi
7.	Sayxunobod tumani	27	Ingliz tili	Nemis tili	Duradgor, tikuvchi
8.	Sardoba tumani	12	Ingliz tili	Yapon tili	Duradgor, tikuvchi
9.	Guliston shahar	4	Ingliz tili	Fransuz tili	Dasturchi, tikuvchi
10.	Shirin shahar	1	Ingliz tili	Nemis tili	Duradgor, tikuvchi
11.	Yangiyer shahar	9	Ingliz tili	Koreys tili	Duradgor, tikuvchi
<b>Toshkent viloyati</b>					
1.	Angren shahar	4	Ingliz tili	Nemis tili	2D va 3D modellashtirish (3D MAX, AutoCad), tikuvchi
2.	Bekobod shahar	3	Ingliz tili	Fransuz tili	Dasturchi, tikuvchi
3.	Olmaliq shahar	1-IDUM	Ingliz tili	Fransuz tili	Dasturchi
4.	Ohangaron shahar	2-IDUM	Ingliz tili	Nemis tili	Dasturchi
5.	Chirchiq shahar	14	Ingliz tili	Nemis tili	Dasturchi, tikuvchi
6.	Nurafshon shahri	13	Ingliz tili	Koreys tili	Dasturchi, tikuvchi
7.	Yangiyo'l shahar	3	Ingliz tili	Nemis tili	Dasturchi, tikuvchi
8.	Bekobod tumani	35	Ingliz tili	Fransuz tili	Tikuvchi, erkaklar sartaroshi
9.	Bo'ka tumani	21	Ingliz tili	Nemis tili	Foto muharrir (Photoshop)
10.	Bo'stonliq tumani	3	Ingliz tili	Nemis tili	Dasturchi
11.	Ohangaron tumani	6	Ingliz tili	Nemis tili	Dasturchi, tikuvchi
12.	Oqqo'rg'on tumani	31	Ingliz tili	Koreys tili	Dasturchi, tikuvchi
13.	Parkent tumani	51	Ingliz tili	Fransuz tili	Dasturchi
14.	Piskent tumani	6	Ingliz tili	Nemis tili	Dasturchi
15.	Toshkent tumani	23	Ingliz tili	Nemis tili	Dasturchi, tikuvchi
16.	Quyichirchiq tumani	45	Ingliz tili	Nemis tili	Dasturchi
17.	Qibray tumani	46	Ingliz tili	Nemis tili	Dasturchi, tikuvchi
18.	Zangiota tumani	14	Ingliz tili	Koreys tili	Duradgor, tikuvchi
19.	Yangiyo'l tumani	40	Ingliz tili	Nemis tili	2D va 3D modellashtirish (3D MAX, AutoCad)
20.	Yuqori Chirchiq tumani	15	Ingliz tili	Nemis tili	Dasturchi
21.	Chinoz tumani	13	Ingliz tili	Nemis tili	Dasturchi
22.	O'rta Chirchiq tumani	42	Ingliz tili	Xitoy tili	Dasturchi
<b>Farg'ona viloyati</b>					

1.	Marg‘ilon shahar	10	Ingliz tili	Nemis tili	Tikuvchi, yakka tartibda poyabzal tikuvchi
2.	Farg‘ona shahar	26	Ingliz tili	Nemis tili	Duradgor, tikuvchi
3.	Quvasoy shahar	4	Ingliz tili	Nemis tili	Tikuvchi, asalarichi
4.	Qo‘qon shahar	23	Ingliz tili	Nemis tili	Duradgor, tikuvchi
5.	Bag‘dod tumani	17	Ingliz tili	Nemis tili	Tikuvchi, santexnik
6.	Beshariq tumani	33-IDUM	Ingliz tili	Nemis tili	Mebel yig‘uvchi va ta‘mirlovchi, tikuvchi
7.	Buvayda tumani	3	Ingliz tili	Fransuz tili	Mebel yig‘uvchi va ta‘mirlovchi, tikuvchi
8.	Dang‘ara tumani	1	Ingliz tili	Fransuz tili	Duradgor, tikuvchi
9.	Yozyovon tumani	4	Ingliz tili	Fransuz tili	Tikuvchi, santexnik
10.	Oltiariq tumani	20	Ingliz tili	Nemis tili	Chilangar, tikuvchi
11.	Qo‘shtepa tumani	7	Ingliz tili	Nemis tili	Duradgor, tikuvchi
12.	Rishton tumani	58	Ingliz tili	Yapon tili	Tikuvchi, kulolchilik mahsulotlari ustasi
13.	So‘x tumani	29	Nemis tili	Ingliz tili	Duradgor, tikuvchi
14.	Toshloq tumani	39	Ingliz tili	Koreys tili	Yakka tartibda poyabzal tikuvchi, duradgor
15.	Uchko‘prik tumani	15	Ingliz tili	Fransuz tili	Duradgor, tikuvchi
16.	Farg‘ona tumani	63	Ingliz tili	Fransuz tili	Mebel yig‘uvchi va ta‘mirlovchi, tikuvchi
17.	Furqat tumani	37	Ingliz tili	Koreys tili	Chilangar, tikuvchi
18.	O‘zbekiston tumani	49	Ingliz tili	Nemis tili	Dasturchi, tikuvchi
19.	Quva tumani	56	Ingliz tili	Nemis tili	Duradgor, tikuvchi
<b>Xorazm viloyati</b>					
1.	Urganch shahar	30-IDUM	Ingliz tili	Koreys tili	Kompyuter operatori, tikuvchi
2.	Xiva shahar	18	Ingliz tili	Nemis tili	Kompyuter operatori, tikuvchi
3.	Bog‘ot tumani	30	Ingliz tili	Fransuz tili	Kompyuter operatori, tikuvchi
4.	Gurlan tumani	16	Ingliz tili	Fransuz tili	Kompyuter operatori, tikuvchi
5.	Qo‘shko‘pir tumani	13	Nemis tili	Fransuz tili	Kompyuter operatori, tikuvchi
6.	Urganch tumani	47-IDUM	Ingliz tili	Nemis tili	Kompyuter operatori, tikuvchi
7.	Hazorasp tumani	25	Ingliz tili	Nemis tili	Kompyuter operatori, tikuvchi
8.	Xonqa tumani	35	Ingliz tili	Nemis tili	Kompyuter operatori, tikuvchi
9.	Xiva tumani	8	Ingliz tili	Nemis tili	Kompyuter operatori, tikuvchi

10.	Shovot tumani	32	Ingliz tili	Fransuz tili	Kompyuter operatori, tikuvchi
11.	Yangiariq tumani	29	Ingliz tili	Fransuz tili	Kompyuter operatori, tikuvchi
12.	Yangibozor tumani	33-IDUM	Ingliz tili	Fransuz tili	Kompyuter operatori, tikuvchi
13.	Tuproqqal'a tumani	2	Ingliz tili	Nemis tili	Kompyuter operatori, tikuvchi
<b>Toshkent shahar</b>					
1.	Bektemir tumani	291	Ingliz tili	Nemis tili	Kompyuterlarga texnik xizmat ko'rsatuvchi, tikuvchi
2.	Mirobod tumani	158	Ingliz tili	Koreys tili	Dasturchi, tikuvchi
3.	M.Ulug'bek tumani	223	Ingliz tili	Nemis tili	Dasturchi, tikuvchi
4.	Olmazor tumani	298	Ingliz tili	Koreys tili	2D va 3D modellashtirish (3D MAX, AutoCad), tikuvchi
5.	Sergeli tumani	104	Ingliz tili	Nemis tili	Shinomontaj qiluvchi, liboslar dizayneri
6.	Uchtepa tumani	295	Ingliz tili	Fransuz tili	Milliy taomlar oshpazi, tikuvchi
7.	Chilonzor tumani	131-IDUM	Ingliz tili	Koreys tili	Mebel yig'uvchi va ta'mirlovchi, tikuvchi
8.	Shayxontohur tumani	102	Ingliz tili	Koreys tili	Mebel yig'uvchi va ta'mirlovchi, tikuvchi
9.	Yunusobod tumani	97	Ingliz tili	Nemis tili	Dasturchi, tikuvchi
10.	Yakkasaroy tumani	100	Ingliz tili	Koreys tili	Mebel yig'uvchi va ta'mirlovchi, milliy taomlar oshpazi
11.	Yangihayot tumani	329	Ingliz tili	Koreys tili	Dizayner, milliy taomlar oshpazi
12.	Yashnaobod tumani	255	Ingliz tili	Koreys tili	Dasturchi, tikuvchi

**Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarga o'rgatiladigan  
kasb-hunarlar o'quv dasturlari**

<b>T/r</b>	<b>O'rgatiladigan kasb-hunar turlari</b>
1.	Fotomuharrir (Photoshop)
2.	2D va 3D modellashtirish (3D MAX, AutoCad)
3.	Kompyuterlarga texnik xizmat ko'rsatuvchi
4.	WEB Dizayner
5.	Kompyuter operatori
6.	Dasturchi
7.	Grafika muharriri (CorelDRAW)
8.	Qandolatchi
9.	Erkaklar sartaroshi
10.	Ayollar sartaroshi
11.	Kashtachi
12.	Tikuvchi
13.	Duradgor
14.	Shinomontaj qiluvchi
15.	Mobil telefonlarni ta'mirlovchi
16.	Issiqxona ishchisi
17.	Mebel yig'uvchi va ta'mirlovchi
18.	Milliy taomlar oshpazi
19.	Kulolchilik mahsulotlari ustasi
20.	Elektrik
21.	Elektr payvandchi
22.	Chilangar-tunukachi
23.	Ganch ishlari ustasi
24.	Asalarichi
25.	Yakka tartibda poyabzal tikuvchi
26.	Santexnik
27.	Liboslar dizayneri

*Izoh: Mazkur kasb-hunar o'quv dasturlari elektron variantda ilova qilinadi.*

O'zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining  
2023-yil "14"-avgustdagi  
239-sonli buyrug'iga  
3-ILOVA

**Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarni ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o'rgatishni tashkil etishni muvofiqlashtiruvchi  
ISHCHI GURUHI TARKIBI**

<b>T/r</b>	<b>F.I.SH.</b>		<b>Lavozimi</b>
1.	U.Begimkulov	-	Vazir o'rinbosari, ishchi guruh raisi
2.	D.Ermatov	-	O'quvchilarni kasbga yo'naltirish boshqarmasi boshlig'i, ishchi guruh raisi o'rinbosari
3.	Sh.Temirova	-	Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari, a'zo
4.	A.Mamadaliyev	-	O'quvchilarni kasbga yo'naltirish boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari, a'zo
5.	Sh.Sattarov	-	Respublika ta'lim markazi direktori, a'zo
6.	L.Gaynutdinova	-	O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi direktori, a'zo
7.	Lavozimiga ko'ra		Qoraqalpog'iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlari, a'zo